



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024-yil
yanvar-may



Dastlabki ma'lumotlar




Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.




Xizmatlar sohasi – bu, korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Soni, birlikda





Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar
(1-iyun holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar
(yanvar-may)

Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(1-iyun holatiga ko'ra)

Soni, birlikda

2024

14 748

2023

15 749

2022

21 000

2021

24 470

2020

16 210

63,8%

2024

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

2020

57,1%

Soni, birlikda

2024

1 222

2023

1 215

2022

1 319

2021

1 440

2020

1 714

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-may)

2024

63,2%

Jami yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soniga nisbatan ulushi

2020

49,0%


Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-may)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi

(2024-yil yanvar-may)




¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023-yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq, qayta ko'rib chiqilgan

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-may)

Hudud	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Viloyat bo'yicha jami	9 384,0	100,0	112,7
shahar va tumanlar:			
Andijon sh.	3 613,0	38,5	113,6
Xonobod sh.	205,0	2,2	113,0
Oltinko'l	389,6	4,2	111,9
Andijon	547,5	5,8	112,5
Baliqchi	491,6	5,2	112,8
Bo'ston	179,3	1,9	112,0
Buloqboshi	309,5	3,3	112,2
Jalaquduq	412,6	4,4	112,4
Izboskan	436,3	4,6	112,1
Ulug'nor	159,0	1,7	112,6
Qo'rg'ontepa	465,8	5,0	112,3
Asaka	603,4	6,4	111,3
Marhamat	366,0	3,9	111,9
Shahrixon	494,7	5,3	112,7
Paxtaobod	341,7	3,6	112,2
Xo'jaobod	369,0	3,9	112,5

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-may)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024-yil yanvar-may)


	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati
Andijon viloyati	2 758,6	110,4%
Andijon shahri	7 491,2	110,5%
Xonobod shahri	4 465,7	111,0%
Oltinko'l	2 024,8	110,2%
Andijon	1 909,0	110,1%
Baliqchi	2 273,9	110,5%
Bo'ston	2 298,9	109,7%
Buloqboshi	2 019,0	109,9%
Jalaquduq	2 071,3	110,4%
Izboskan	1 705,6	110,0%
Ulug'nor	2 488,5	111,2%
Qo'rg'ontepa	2 018,4	110,2%
Asaka	1 696,3	109,0%
Marhamat	1 960,5	109,6%
Shahrixon	1 521,1	110,2%
Paxtaobod	1 633,3	109,7%
Xo'jaobod	3 067,5	109,9%

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-may)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **64,4** foizni, shu jumladan, **16,0** foizini kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2024-yil yanvar-may)



Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-may)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	9 384,0	100,0	112,7
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	489,8	5,2	110,2
Moliyaviy xizmatlar	2 076,1	22,1	113,2
Transport xizmatlari	1 839,9	19,6	112,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 742,9	18,6	110,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	195,6	2,1	108,6
Savdo xizmatlari	2 587,8	27,6	110,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	236,2	2,5	110,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	445,6	4,7	109,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	173,5	1,8	110,9
Ijara xizmatlari	194,7	2,1	110,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	229,4	2,4	109,0
Shaxsiy xizmatlar	503,2	5,4	107,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	90,3	1,0	126,5
Boshqa xizmatlar	321,7	3,4	118,6


Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **94,7** foiz.

Andijon shahrida transport xizmatlari hajmi **809,4** mlrd. so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **112,2** foizni tashkil etgan.

Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-may)



Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2024-yil yanvar-may)

Andijon viloyati	1 839,9	112,4%
Andijon shahri	809,4	112,2%
Xonobod shahri	54,1	113,1%
Oltink'ol	65,1	112,5%
Andijon	81,0	112,6%
Baliqchi	136,3	113,0%
Bo'ston	25,9	113,6%
Buloqboshi	60,9	112,0%
Jalaquduq	64,5	113,4%
Izboskan	81,4	112,9%
Ulug'nor	25,7	112,7%
Qo'rg'ontepa	61,3	113,7%
Asaka	89,3	112,3%
Marhamat	75,8	112,1%
Shahrixon	74,9	113,3%
Paxtaobod	70,2	112,8%
Xo'jaobod	64,1	113,5%

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd. so'mda



O'sish sur'ati

2024-yil yanvar-may oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rtidan uch qismini, ya'ni **81,2** foizni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-may)



Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2024-yil yanvar-may)




Andijon viloyati	2 587,8	110,2%
Andijon shahri	1 046,9	110,1%
Xonobod shahri	55,5	111,1%
Oltinko'l	129,2	110,3%
Andijon	152,2	110,7%
Baliqchi	110,9	109,8%
Bo'ston	53,5	109,9%
Buloqboshi	80,9	111,4%
Jalaquduq	117,1	112,1%
Izboskan	89,9	110,1%
Ulug'nor	29,7	109,5%
Qo'rg'ontepa	144,9	110,5%
Asaka	175,1	110,0%
Marhamat	94,7	111,2%
Shahrixon	125,2	112,0%
Paxtaobod	83,6	110,2%
Xo'jaobod	98,5	110,9%

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd. so'mda ○ O'sish sur'ati

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-may)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari ning umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024-yilning yanvar-may** oylaridagi ulushi **95,3 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024-yil yanvar-may)



¹⁾ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-may)



2024-yil yanvar-may oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **445,6** mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **109,8 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2024-yil yanvar-may, mlrd. so'mda)

Andijon viloyati.	445,6
Andijon shahri	237,1
Xonobod shahri	3,7
Oltinko'l	7,1
Andijon	42,2
Baliqchi	8,7
Bo'ston	4,9
Buloqbo'shi	8,7
Jalaquduq	12,1
Izboskan	15,4
Ulug'nor	7,5
Qo'rg'ontepa	16,4
Asaka	24,1
Marhamat	12,7
Shahrixon	23,2
Paxtaobod	12,9
Xo'jaobod	8,9

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-may)

2024- yil
yanvar-may oyla-
rida sog'ilqni saq-
lash xizmatlari hajmi
173,5 mlrd. so'mni
yoki ko'rsatilgan
bozor xizmatlari
umumiy hajmining
1,8 % ini tashkil etdi.



Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024-yil yanvar-may)


Andijon viloyati	173,5	110,9%
Andijon shahri	69,9	120,5%
Xonobod shahri	4,9	111,9%
Oltink'ol	4,5	112,9%
Andijon	8,1	113,4%
Baliqchi	6,5	112,7%
Bo'ston	3,9	111,8%
Buloqboshi	4,9	109,6%
Jalaquduq	7,1	110,5%
Izboskan	7,5	110,8%
Ulug'nor	4,1	111,5%
Qo'rg'ontepa	11,1	108,0%
Asaka	13,9	112,0%
Marhamat	7,6	111,1%
Shahrixon	7,8	112,1%
Paxtaobod	6,2	113,3%
Xo'jaobod	5,5	112,5%

Hajmi, mlrd. so'mda

O'sish sur'ati


Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾

(yanvar-may)



2024- yil yanvar-may oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **236,2 mlrd.** so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,5 %** ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024- yil yanvar-may)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

 Hajmi, mlrd. so'mda

 O'sish sur'ati

2024- yil yanvar-may oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning jami xizmatlar hajmidagi ulushi **2,1 %** ni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **86,6** foiz.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar-may)



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024-yil yanvar-may)




¹⁾ Hududlar bo'yicha taqsimlangan hajmlarni hisobga olgan holda

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-may)



Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024-yil yanvar-may)




2020-yilning yanvar-may oylariga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **194,7** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **2,1 %** ni tashkil etdi.

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Hajmi, mlrd. so'mda

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-may)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **15,3 %** ni tashkil etadi.


Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-may)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-may)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024-yil yanvar-may, mlrd. so'mda)

Andijon viloyati.	90,3
Andijon shahri	34,9
Xonobod shahri	1,8
Oltinko'l	2,5
Andijon	3,6
Baliqchi	3,0
Bo'ston	4,2
Buloqboshi	2,3
Jalaquduq	2,7
Izboskan	4,9
Ulug'nor	2,9
Qo'rg'ontepa	5,7
Asaka	6,0
Marhamat	3,7
Shahrixon	3,5
Paxtaobod	5,0
Xo'jaobod	3,6

2020-yilning yanvar-may oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **54,8** mlrd. so'mga oshib, **90,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Andijon shahrining ulushi **38,7** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki Agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi – bu, sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi – bu, kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa muhandislik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 74 228-30-83